

CHET TILLARNI O‘QITISHDA METAKOGNITIV YONDASHUVNING MOHIYATI VA SAMARADORLIGI

Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Ismailova Barno Yuldashbayevna

barno.ismailova@urspi.uz

Annatsiya: Ushbu maqolada metakognitiv yondashuvning mohiyati va chet tillarini o‘qitishda metakognitiv yondashuvning samaradorligi haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: metakognitiv yondashuv, ta‘lim jarayoni, refleksiya, ingliz tili, chet tili.

Metokognitiv yondashuv doirasida til insonning kognitiv qobiliyati sifatida baholanadi. U insonning hayot kechirishi, atrof-muhitga moslashishi, yo‘nalishini aniqlash va rivojlanishiga xizmat qiladi. Tilning tabiati va funksiyalari, uning fikrlash faoliyati bilan bog‘liqligiga bo‘lgan yangi qarashlar tilni ushbu nuqtai nazardan o‘rganish uchun maxsus nazariy-uslubiy bazani ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bunday baza sifatida til konseptualizatsiyasi, kategoriyalashtirish va interpretatsiya nazariyalari, bilimlarni mental va til darajalarida namoyon etish usullari, aniq tushunchalarni shakllantirish va tahlil usullari bo‘yicha amaliy ishlanmalar xizmat qildi. Kognitiv yondashuvning tilshunoslikdagi asosiy nazariy asoslari turli fan sohalaridagi bilimlarni o‘zlashtirilishi, bilish jarayonlarining tabiati, tilning kognitiv qobiliyat sifatidagi ahamiyati va fikrlash tuzilmalari bilan til tuzilmalari o‘rtasidagi munosabat haqidagi qarashlarga tayanadi. Bilimlarni qabul qilish, sxemalashtirish, uzatish jarayonlari va ularning til tuzilmalari hamda jarayonlari bilan o‘zaro ta‘sirini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar turli fan sohalarida rivojlandi. Bu yondashuv til va fikrlash o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlikni o‘rganish, tilning bilimlarni shakllantirish va uzatishdagi roliga bag‘ishlangan tadqiqotlarga zamin yaratdi¹.

¹ Boldyrev, Nikolay. (2021). Когнитивный Подход В Лингвистике И Смежных Областях Знания Cognitive Approach In Linguistics And Related Areas Of Research. 5-27.

Metokognitiv yondashuv o'qitishning samaradorligini oshirishga qaratilgan. U nafaqat bilimlarning tuzilishiga, balki ta'lim oluvchilarning o'qish jarayonini qanday qabul qilishiga ham e'tibor qaratadi. Bunday yondashuv pedagoglarga o'quv jarayonini chuqurroq va tartibliroq tashkil qilishga yordam beradi. Sveller² nazariyasiga ko'ra, o'quv dasturlari shunday tuzilishi kerakki, ular o'quvchilarning miyasini ortiqcha yuklama hosil qilmasligi lozim. Bu talab inson xotirasining ishlash xususiyatlari bilan bog'liq: qisqa muddatli (ishchi) xotirada bir vaqtning o'zida saqlanishi mumkin bo'lgan ma'lumot miqdori cheklangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ortiqcha kognitiv yuklanish yangi bilimlarni o'zlashtirishga to'sqinlik qilishi mumkin. Sveller nazariyasi o'quv materialini o'zlashtirishga qanday omillar ta'sir qilishini, uning qiyinchilik darajasi qanday bo'lishi kerakligini, ma'lumotni qanday taqsimlash va taqdim qilish samarali bo'lishini tushunishga yordam beradi.

T.G.Strebsovaning fikriga ko'ra, metokognitiv yondashuv tilni insonning umumiy kognitiv mexanizmlari bilan bog'liq ochiq tizim sifatida ko'radi. Bu yondashuvga ko'ra, til xususiyatlari inson tajribasining turli sohalari bilan bog'langan konseptuallashtirish jarayonlari orqali shakllanadi. Bunda til tuzilmalari insonning mental reprezentatsiyalarini o'rganish uchun asos sifatida foydalaniladi. Bu tilni tushunish va uning inson ongi bilan bog'liq jarayonlarini tadqiq qilishda yangi yo'nalishlarni ochib berdi³.

Ta'lim jarayonida refleksiyaning shakllanishida, rivojlanishida va eng integrativ jarayon sifatida amalga oshirilishida metokognitiv yondashuvga asoslangan bilimlarni tizimlashtirish qonuniyatlari muhim rol o'ynaydi. Chunki ta'lim oluvchining reflektiv faoliyat jarayoni o'ziga xos tizimli tashkillashuvni talab etadi, bunda uchta metodika ("faoliyatli sinov", "uslubiy differentsiatsiya" va "reflektiv qatlamlash") shaxsning metakognitiv sohasini tadqiq qilish uchun yangi va yetarli darajada konstruktiv imkoniyatlarni ochadi. Bu uchta muhim soha: faoliyat, shaxs va ong nuqtai nazaridan afzalligi shundaki, ular ta'lim oluvchining

²

³ Скребцова Т. Г. Когнитивная лингвистика: классические теории, новые подходы — М.: Издательский Дом ЯСК, 2018. — 391 с.

asosiy faoliyat parametrlarini, eng avvalo, natijadorlikni qayd etishga imkon yaratadi⁴.

O‘zbekistonlik olimlardan R.X.Nosirova⁵ maktabgacha ta’limda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qo‘llashning pedagogik asoslari haqida o‘tkazgan tadqiqotlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida metakognitiv metodlarni qo‘llash orqali bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash masalalari xususida fikr yuritib, maktabgacha ta’limda metakognitiv metodlarni qo‘llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash hamda natijalarni dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi bolalar yutuqlari bilan qiyosiy taqqoslash ta’lim muassasalari va tizimning samarali faoliyatini tashkil etishni kafolatlaydi.

Z.Xalilova⁶ esa akademik ingliz tilini o‘rganishda kognitiv jarayonlarning muvaffaqiyatga ta’siri masalalarini tahlil etib, kognitiv jarayonlar xotira, diqqat va metakognitiv strategiyalarni o‘z ichiga olishini, ular esa ikkinchi tilni o‘zlashtirish (SLA) jarayonida til qobiliyatlarini samarali tarzda o‘zlashtirishga yordam berishini, ushbu jarayonlar, ayniqsa, akademik ingliz tilini o‘zlashtirishda juda muhim ekanligi, har bir til maxsus lingvistik tuzilmalar, fan sohasiga xos lug‘atlar va abstrakt tushunchalar bilan ishlashni talab qilishini alohida ta’kidlaydi.

Chet tillarni o‘rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg‘or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to‘liq javob bermayapti. Ta’lim asosan an’anaviy uslublarda olib borilmoqda. Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o‘rganishni tashkil qilish, shuningdek, o‘qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o‘quvslubiy materiallar bilan ta’minlash yanada takomillashtirilishini taqozo etadi. Chet tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha chuqur tahlillar olib borishni taqozo etadi⁷.

⁴ Карпов Анатолий В., Карпов Александр А., Субботина Лариса Ю. Методологические и методические основы исследования метакогнитивных детерминант организации деятельности // Российский психологический журнал. 2017. №1.

⁵ A.X.Nosirova. Maktabgacha ta'limda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash bo'yicha tajribasidagi ishlarining mazmuni Academic Research In Educational Sciences Volume 1 | Issue 4 | 2020 Issn: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (Sjif) 2020: 4.804 Academic Research, Uzbekistan 614 Www.Ares.Uz

⁶ Халилова, З. (2024). Akademik ingliz tilini o'rganishda kognitiv jarayonlarning muvaffaqiyatga ta'siri. *Лингвоспектр*, 2(2), 142–144. Извлечено от <https://lingvospekr.uz/index.php/lingsp/article/view/233>

⁷ Adila Tadjibaeva INGLIZ TILINI SAMARALI O‘QITISHDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH // ReFocus. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tilini-samarali-itishda-grammatik-tarzhima-metodidan-foydalanish> (data obrasheniya: 11.01.2025).

Shu sababli metakognitiv yondashuvni oliy ta'limda ta'lim mazmuniga singdirish lozim, chunki metakognitiv yondashuv ingliz tilini o'qitishda notanish va murakkab tuzilishga ega obyektlarga qiziqish, obyektlar va ularning xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirib, xatolarni tuzatishga harakat qilishga yordam beradi, shuningdek, ushbu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar va ta'lim sharoitlarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda ma'lum darajada xorijiy tillarni o'rganishdagi mahalliy metodikalarni tahlil etilganligini ko'rishimiz mumkin. Ingliz tilida o'quv materialini o'zlashtirishda metakognitiv yondashuvni qo'llash ijtimoiy va pedagogik jihatdan katta ahamiyatga ega. Bu yondashuv ta'lim oluvchilarning o'ziga xos o'quv jarayonini boshqarish, kuzatish va baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Quyidagi ijtimoiy va pedagogik zaruriyatlar mavjudligini asoslaydi:

globallashtirish sharoitida kommunikatsiya vositalaridan biri bo'lgan ingliz tili zamonaviy dunyoda xalqaro aloqa vositasi hisoblanadi. Talabalarda metakognitiv yondashuvni rivojlantirish ularning ingliz tilidagi kommunikatsiya qobiliyatini oshiradi, bu esa turli madaniyatlar bilan samarali aloqada bo'lishga imkon beradi;

metakognitiv yondashuv mustaqillik va mas'uliyatga asoslanadigan shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi, talabalarga o'z o'quv jarayoni uchun mas'uliyatni his qilishga yordam beradi. Bu ularning mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatini kuchaytiradi;

talabanning o'zlashtirish darajasini oshirishga yo'naltirilgan metakognitiv yondashuv talabalarga o'quv materialini qanday o'zlashtirishini kuzatish va baholash imkonini beradi. Bu usul natijadorlikni oshiradi, chunki talabalar o'zlariga mos bo'lgan o'quv strategiyalarni tanlay oladilar;

o'qitishning shaxsiylashtirilishi nuqtai-nazaridan qaraganda har bir talabanning o'ziga xos o'quv usullari bor. Metakognitiv yondashuv o'qituvchilarga talabalarning ehtiyojlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi va ta'lim jarayonini moslashtirish imkonini yaratadi;

ta'lim oluvchilarda muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish jihatidan metakognitiv strategiyalar ingliz tilidagi murakkab grammatik qoidalar

yoki leksik tarkibni o'zlashtirishda qiyinchiliklarni yengish uchun samarali vositalarni taklif qiladi. Demak, metakognitiv yondashuvni qo'llash talabalarning shaxsiy va akademik rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bu yondashuv nafaqat xorijiy tilni samarali o'rganishga yordam beradi, balki ularning ijtimoiy hayotda faol bo'lishlariga va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi.